
DALVARZINTEPA MANZILGOHI TARIXI

Акабирова Умида

Термиз Давлат музей-курикхонаси бош мутахассиси

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kushon davlatining tarixda Dalvarzintepa manzilgohining tutgan o'zni yuzasidan fikr yuritilgan bo'lib, Kushon davlatining rivojlanishida asos vazifasini bajargan omillar yuzasidan qarashlar mavjud. Shuningdek, maqolada Kushon davlati poytaxti Dalvarzintepa shahri, oromiy yozuvi va shu kabi davlat ahamiyatida muhim sanalgan vositalar xususida qarashlar o'z ifodasini topgan. Maqolada Kushon davlatining geografik tuzilishi, hukumdorlarning davlat miqyosidagi islohotlari, obodonchilik ishlari hamda elchilik ishlari ham qalamga olingan.

Kalit so'zlar: Kushon davlati, Dalvarzintepa, oromiy yozuvi, madani yaloqa, diniy qarashlar, geografik joylashuv.

Bugungi kun zamonaviy mutaxassislar oldida qadim o'tmishda mavjud bo'lgan va yirik sivilizatsiya markaziga aylangan manzilgohlarni izlab topish va ularni davrlashtirish yosh avlodda ular xususida bilim va ko'nikma hosil qilish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirishdan iborattir. Mana shunday qadimiy manzilgohlaridan biri bu Kushon davlatining poytaxti Dalvarzintepa qadimiy shahar xarobasidir. Dalvarzintepa manzilgohi Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani markazi Sho'rchi shahridan 10 km shimoli-sharqda joylashgan. Qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan shoh saroy qal'asi va shaharning o'zidan iborat. Shahar ham mudofaaning istehkomli tizimiga ega bo'lib, bu yerda aslzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniylar istiqomat qilishgan.

O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining san'atshunoslik ekspeditsiyasi Dalvarzintepada 1962-yil dastlabki tekshiruv ishlarini va 1967-yildan buyon muntazam arxeologik qidiruv ishlarini olib boradi. 1968-yilda Dushanbe shahrida «Kushonlar davrida Markaziy Osiyo» mavzuida o'tkazilgan xalqaro simpoziumda ekspeditsiya davomida topilgan topilmalar: haykallar, kulolchilik buyumlari, shahar mudofaa inshootlarini o'rganish natijalari va boshqalar taqdim etildi. Mana shu topilmalar asosida Kushon podshohligining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa shahar xarobasi o'rnida bo'lgan degan faraz oldinga surilgan edi. Miloddan avvalgi 2-asr oxiri va 1-asr boshlarida hozirgi Dalvarzintepa o'rnida kichik manzilgoh paydo bo'lgan. Kushon podshohlaridan Kanishka hukmronligi davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllangan. Mil. av. 1-asr oxiri milod boshlarida Shimoliy Baqtriya hududida Dalvarzintepadan boshqa bunchalik yirik shahar harobasi boshqa manbalarda ham qayd etilmagan. Shahar hududida uni bir qancha mahallalarga ajratgan shohko'chalar, shu-ningdek, torko'chalar bo'lgan. 1972-yil ekspeditsiya Dalvarzintepadan topilgan uylar xarobalaridan biridan vazni salkam 36 kg chamasi keladigan oltin bezaklardan va yombilardan iborat noyob xazinani va fil suyagidan ishlangan, dunyoda eng qadimgi bo'lgan shaxmat donalarini topdi (q. Dalvarzintepa xazinas). Badavlat fuqarolarning mahallasidan tashqari shaharda, arkka (qo'rg'onga) yaqin yerda hunarmandlar va kulollarning uylari joylashgan. Bu topilmalarning barchasi Dalvarzintepada boy aholi qatlami yashaganligi va bu yerdan topilgan buyumlar shaharning rivojlangan qudratli shaharlar qatorida ekanligidan dalolat beradi. Bu topilmalarning barchasi Dalvarzintepaning Buyuk Kushon davlati poytaxti bo'lganligini isbotidir. "Olima G.A Pugachenkovaning fikricha, Kushonlarning ilk poytaxti hozirgi Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi Dalvarzintepa

xarobalari o'rnida bo'lgan va bu shahar Xitoy yilnomalarida "Xodzo" nomi bilan ma'lum deb ta'kidlaydi". Ko'p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Dalvarzintepa mashhur va svilizatsiya markazi bo'lganligi, qadim o'tmishdayoqq yirik davlatlar bilan olib borga savdo va diplomatik aloqalari bu shaharni poytaxt sifatida shakllangankigini isbotidir.

Dalvarzintepaning shimoliy g'arbiy qismidan Kushon ma'budalaridan biriga bag'ishlangan ibodatxona topilgan. Shahar devori tashqarisida esa budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan daxma topildi. Asosiy shohko'chalardan biri o'tgan shahar markazida budda majmuasi ulug'vor haykallari bo'lgan ibodatxona qad ko'targan. Bu topilmalarning barchasi Dalvarzintepada qadimdan diniy qarashlar yuksak tarzda shakllanganligining dalilidir.

Mil. 3-asr oxiri- 4-asr boshlarida Kushon podsholigi eftaliylar tomonidan zabt etilgandan keyin Dalvarzintepa vayron qilinib hayot faqat uning bir qismidagina saqlanib kelgan. Arablar istilosidan so'ng shahar batamom vayron qilinib, hayot Dalvarzintepadan 10 km chamasi sharqda, Budrochtepa o'rniga ko'chgan. 1989-yil Dalvarzintepani o'rganishda yangi bosqich bo'ldi. O'zbekistan san'atshunoslik ekspeditsiyasi bilan Yaponiyaning Tokiodagi Soka universititi va Kashixaradagi Arxeologiya institutining prof. Kyudzo Kato rahbarligidagi ekspeditsiyasi qamkorlikda ish olib borishmoqda. Bularning barchasi Dalvarzintepa shahar xarobasi butunjahon ahamiyatiga molik alohida diqqatga sazovar manzilgohligini isbotlaydi. Bu va bunga o'xshash yurtimiz hududidagi manzilgohlar bizning ko'xna diyorumiz qadim o'tmishdan boshlab va hozirgi kunga qadar svilizatsiyaning yorqin o'chog;iligiga yorqin namunadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'rayeva Charos Qurbonmurot qizi. "Kushon davlatining ilk poytaxti Dalvarzintepa tarixi" maqola. International Journal of Education, Social Science & Humanities -2023.
2. Sagdullayev A.S, V.A Kastetskiy. Tarix. Qadimgi dunyo. 6 -sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent: "Yangi yo'l poligraf servis" -2013.
3. Bozorova Sevaraxln Qobiljonovna. "Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik" maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences -2021.
4. Mamasidikov Abdug'ani. "Kushon davlati davrining madaniyati" maqola. Eurasian journal of academic research innovative academy research support center -2022.